

## HARBIY XIZMATCHILARNI KASBIY TANLOVINI AMALGA OSHIRISHDA XORIJ DAVLATLARI TAJRIBASI VA SOHA ISTIQBOLLARI

Usarov Shuxrat Baxrullayevich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tингловчиси капитан

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada kasbiy tanlov jumladan harbiy-kasbga nomzodlarni saralash jarayonida psixodiagnostik ishlarni amalga oshirish, kasbiy tanlov jarayonlari bo'yicha xalqaro tajriba hamda sohaning bugungi kuni va yaqin kelajakdagi istiqbollari xususida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *kasbiy tanlov, harbiy-kasbiy saralash, psixologik testlar, qobiliyat sinovi, validlik, ishonchlilik, kasbiy kompetentlik, harbiy xizmatchi shaxsi, psixologik aspektlar, psixometrika, harbiy-professional faoliyat.*

### ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН И ПЕРСПЕКТИВЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОТБОРА ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Аннотация:** в данной статье рассматривается реализация психодиагностической работы в процессе отбора кандидатов на военную профессию, включая процесс профессионального отбора, международный опыт процесса профессионального отбора, а также текущие и ближайшие перспективы данной области.

**Ключевые слова:** профессиональный отбор, военно-профессиональный отбор, психологические тесты, проверка способностей, валидность, надежность, профессиональная компетентность, личность военнослужащего, психологические аспекты, психометрика, военно-профессиональная деятельность.

### EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES AND FIELD PROSPECTS IN IMPLEMENTING THE PROFESSIONAL SELECTION OF MILITARY SERVANTS

**Abstract:** *This article discusses the implementation of psychodiagnostic work in the process of selection of candidates for the military profession, including the professional selection process, the international experience of the professional selection process, and the current and near future prospects of the field.*

**Key words:** *professional selection, military-professional selection, psychological tests, ability test, validity, reliability, professional competence, personality of a military serviceman, psychological aspects, psychometrics, military professional activity.*

Bungi kunda harbiy sohada psixologik ishlarni yanada rivojlantirish hamda armiya saflariga nomzod kadrlarni sifatli tanlov qilish butun dunyo Qurolli Kuchlari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Hozirda dunyo miqyosida barcha sohalarda bo'lgani kabi harbiy sohada ham psixologiyaning o'rni va ahamiyati, shuningdek, harbiy-kasbiy tanlov sohasida psixolog mutaxassislarga bo'lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda.

Dunyo mamlakatlari armiyalari shu jumladan yurtimiz Qurolli Kuchlarida ham harbiy psixologlar muddatli harbiy xizmatchilar, kursantlar, serjant va ofitserlarning axloqiy-ruhiy ta'minotini mustahkamlash shuningdek milliy armiyamiz saflariga nomzod kadrlarni saralab olish faoliyatida samarali xizmat qilib kelishmoqda.

Jadal globallashuv jarayoni turli soha xodimlaridan, jumladan harbiy psixolog mutaxassislardan mamlakatning mudofaa qudrati hamda harbiy salohiyatini yanada mustahkamlab borishda yuksak mas'uliyatni shuningdek, yetarli darajada kasbiy tajriba va kompetentlikga ega bo'lishni talab etmoqda.

Dunyoning rivojlangan davlatlari armiyalarida bugunda nomzodlarni kasbga yaroqligini psixologik o'rganish va psixodiagnostik tashxislash Qurolli Kuchlar saflarini sifatli kadrlar bilan butlab borish imkonini berib kelmoqda.

Ilg'or xorijiy davlatlar masalan AQSH armiyasi harbiy xizmatga nomzodlarni psixologik saralashda ilmiy-emperik jihatdan yillar davomida boyitib borilgan ko'p omilli qobiliyat sinovlari batariyasining butun bir majmuasidan (Armed Services Vocational Aptitude Battery – Qurolli Xizmatlar Kasbiy Qobiliyat Batareyasi) samarali foydalanib kelmoqda.

ASVAB birinchi marta 1968 yilda taqdim etilgan va 1976 yilda barcha harbiy qismlar tomonidan qabul qilingan. U 2002 yilda katta qayta ko'rib chiqilgan.

2004 yilda sinov test topshiruvchilarning 50% dan yaxshiroq ishlashini ta'minlash uchun skoring tizimiga o'tkazilib renormalizatsiya qilingan.

Kompyuterda bajariladigan test sinovlari formati ASVAB tarkibidagi quyidagi umumiyl qobiliyatlarni tashxislashga qaratilgan batariyalardan tarkib topgan.

- Umumiy fanlar – (GS) - 15 daqiqada 8 savol
- Arifmetik fikrlash – (AR) - 15 daqiqada 39 savol
- So'z bilimi – (WK) - 15 daqiqada 8 savol
- Paragrafni tushunish – (PC) - 10 daqiqada 22 savol
- Matematika bilimlar – (MK) - 15 daqiqada 20 savol
- Elektronika haqida ma'lumot – (EI) - 15 daqiqada 8 savol
- Avtomobil va do'kon haqida ma'lumot – (AS) - 10 daqiqada 7 savol
- Mexanik tushunish – (MC) - 15 daqiqada 20 savol
- Ob'ektlarni yig'ish – (AO) - 15 daqiqada 40 savol
- Og'zaki ifoda (WE) ball = (VK)+(PC)

Yozma ravishda bajariladigan sinovlar formati esa quyidagi test batariyalardan tarkib topgan.

- Umumiy fan – (GS) - 45 daqiqada 20 savol
- Arifmetik fikrlash – (AR) - 30 daqiqada 36 savol
- So‘z bilimi – (WK) - 35 daqiqada 11 savol
- Paragrafni tushunish – (PC) - 15 daqiqada 13 savol
- Matematika bilimlar – (MK) - 25 daqiqada 24 savol
- Elektronika haqida ma’lumot – (EI) - 20 daqiqada 9 savol
- Avtomobil va do‘kon haqida ma’lumot – (AS) - 25 daqiqada 11 savol
- Mexanik tushunish – (MC) - 25 daqiqada 19 savol
- Ob’ektlarni yig‘ish – (AO) - 25 daqiqada 15 savol
- Og‘zaki ifoda (WE) ball = (WK)+(PC)

AQSH Armiyasi va Milliy gvardiyasi uchun umumiy ballar tizimi

CL	Clerical	Clerical
CO	Combat Operations	VE+AS+MC
EL	Electronics	GS+AR+MK+EI
FA	Field Artillery	AR+MK+MC
GM	General Maintenance	GS+AS+MK+EI
GT	General Technical	WK+PC+AR
MM	Mechanical Maintenance	AS+MC+EI
OF	Operators and Food	VE+AS+MC
SC	Surveillance and Communications	VE+AR+AS+MC
ST	Skilled Technical	VE+GS+MC+MK
* SF	Special Forces	GT≥110 CO≥100

Yuqoridagi jadvalda ko‘rinib turganidek harbiy xizmatga nomzodlar xizmat faoliyatining sohalari talablaridan kelib chiqqan holda ma’lum qobiliyatlarni o‘zida tarkib toptirishiga qarab baholanadilar va xizmatga qabul qilinadilar.

Hindiston armiyasida harbiy xizmatga va harbiy ta’lim muassasalariga o‘qishga nomzodlar “The Combined Defence Services Examination” (CDS Exam) imtihoni orqali qabul qilinadilar. Mazkur imtihonlar yiliga ikki marotaba o‘tkaziladi. Imtihonlarda jismoniy va tibbiy tayyorgarlikdan tashqari yozma va intervyu shaklida aql va shaxsiyat testlari sinovi mavjud.

Sinov jarayoni ikki bosqichli tanlov jarayonidan iborat:

I bosqich: Rasmlarni idrok etish testi. Nomzodlar test natijalari ko‘rsatkichlari asosida qisqa ro‘yxatga olinadi.

II bosqich: Intervyu, guruh testlari va psixologiya testlaridan iborat. Ushbu testlar 4 kun davomida o'tkaziladi. Testlarning tafsilotlari Hindiston armiyasining kasbiy portalida berilgan.

Nomzodlar umumiy bilim darajasi va umumiy qobiliyatlarni tashxislashga mo'ljallangan 120 ta savoldan iborat testlardan o'tadilar.

Shuni ta'liddab o'tish o'rinniki bugunda Hindiston oliygohlariga umumiy bilim va qibiliyatlar testi "Tamanna" sinovi samara berib kelmoqda.

Xorij davlatlari armiyalari nomzodlarni kasbiy tanlovini amalga oshirishda bir qator umumiy qibiliyat testlaridan foydalanib kelmoqdalar. Bular tarkibiga turli toifadagi Numerical Reasoning Test, Verbal Reasoning Test, Inductive Reasoning Test, Cognitive Ability Test, Abstract Reasoning Test, Logical Reasoning Test, Spatial Reasoning Test, Critical Thinking Test, Diagrammatic Reasoning, Deductive Reasoning Test, Mechanical Reasoning Test, Situational Judgment Test (SJT) kabi umumiy qibiliyat sinovi batariyalarini kiritish mumkin.

Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida ham harbiy harbiy xizmatchilarni kasbiy tanlovini amalga oshirishda test metodikalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tadbiq etish mutaxassislar oldida turgan dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi.

Sifatli sarlash va tanlov xususida gap ketar ekan, psixodiagnostik tadqiqotlarni shakllantirish qoidalari to'g'risidagi masalaga e'tibor qaratish lozim.

Bunda mutaxassis psixologlar yoki testologlar tomonidan ishlab chiqilgan sinov testlari uchun bir qator talablar mavjud:

Testning ishonchliligi - bu bir turdag'i test yoki uning ekvivalent shakli bilan qayta sinovdan o'tkazilganda subyektlar o'rtasidagi ballarning muvofiqligidir.

Psixologik testlarni bir necha ixtisoslikka ega mutaxassislar yordamida (tilshunoslar, psixiatrlar) modifikatsiya qilishi.

Bazida metodikalar natijalarni matematik statistik tahlil etish natijalari shuni ko'rsatadiki, metodika yetarli darajada ishonchlilikka ega bo'ladi, biroq validligi to'g'risidagi masala yechilmasdan qoladi.<sup>32</sup>

Testning validligi – metodikaning asosi, o'zagi sanaladi. U qabul qilib olinayotgan axborotning tashxis qilinayotgan psixologik xususiyatga muvofiqlik darajasini ko'rsatadi.<sup>33</sup>

Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatchilarni saralash va lavozimlarga tayinlash mobaynida turli ilmiy metodlarni qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Kasbiy tanlov davomida maxsus ilmiy usullar qo'llanildi: kuzatish, so'rov, kontent tahlil, ekspert baholash, psixologik va psixofiziologik testlar batareyasi yordamida kompleks psixologik o'rganish testlari.<sup>34</sup>

<sup>32</sup> Словарь-справочник по психоdiагностики 3-е изд – СПБ.: Питер, 2007. 493 ст. - (Серия «Мастера психологии»).

<sup>33</sup> "Harbiy-kasbiy saralash jarayonida psixologik testlarni qo'llashning muammoli masalalari". Uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir U. Fattaxov. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi nashriyoti -T.: 2023. 8-9 b.

<sup>34</sup> Профессиональный психологический отбор оперативных сотрудников уголовного розыска -Санкт Петербург 2009г. Скалин Юрий Евгеньевич.

Kasbiy-psixologik tanloving amaliy ahamiyatini belgilaydigan asosiy shartlar uning tasdiqlangan hamda asoslangan tizimga egaligi, ijtimoiy-iqtisodiy asoslashni va undan foydalanish zaruratinini, olingan natijalar mehnat va moddiy resurslar uchun sarflangan kuchlarni albatta oqlaydi.<sup>35</sup>

Xulosa o‘rnida shuni aytish o‘rinliki harbiy-kasbiy tanlov – bu ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, nomzodlarning kasbiy – psixologik o‘rganish orqali ularning shaxsiy sifatlarini kasbiy talablarga muvofiqligini aniqlash hamda kelajakdagi kabiy muvaffaqiyatini ilmiy bashorat qilish imkonini beradi. Uning sifati bevosita professional tanlovnini amalga oshiradigan mutaxassislarning kasbiy kompetentligiga va xorijiy tajribadan samarali foydalana olishi hamda tanlov usullarini muntazam boyitib borishiga bog‘liq bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Словарь-справочник по психоdiagностикию 3-е изд – СПБ.: Питер, 2007. 493 ст. - (Серия «Мастера психологии»).
2. “Harbiy-kasbiy saralash jarayonida psixologik testlarni qo‘llashning muammoli masalalari”. Uslubiy qo‘llanma. Mas’ul muharrir U. Fattaxov. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi nashriyoti -Т.: 2023. 8-9 b.
3. Профессиональныш психологический отбор оперативных сотрудников уголовного розыска -Санк Петербург 2009г. Скалин Юрий Евгеньевич.
4. Профессиональный психологический отбор как цель, процесс и результат - Vestnik of Minin University. 2022.Д. В. Смирнов, С. Н. Сорохоумова.
5. Басов М.Л. Личность и профессия. Москва; Ленинград: Гос. изд-во, 1926 (Л.: тип. им. Н. Бухарина).
6. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности: учебное пособие для вузов. М.: ПЕР СЭ, 2001.
7. Большой психологический словарь / под редакцией Б.Г. Мещерякова, В.П. Зинченко. М.: ACT, ACT Москва, Прайм-ЕвроЗнак, 2009.
8. Винокуров Л.В. Психология работы с персоналом в трудах отечественных специалистов. СПб: Питер, 2001.
9. Геллерштейн С.Г., Коган В.М., Шпигель Ю.Н., Шпильрейн И.Н. Руководство по психотехническому профессиональному отбору / ред. И.Н. Шпильрейн. М.-Л.: Гос. изд-во, 1929.
10. Гуревич К.М. Профессиональная пригодность и основные свойства нервной системы. М.: Наука, 1970.

<sup>35</sup> Профессиональный психологический отбор как цель, процесс и результат - Vestnik of Minin University. 2022. Д. В. Смирнов, С. Н. Сорохоумова.